



Ranks of mental homonymy in the Uzbek and Turkish languages

Mukaddas ABDURAKHMANOVA¹

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2024

Received in revised form

10 April 2024

Accepted 25 April 2024

Available online

25 July 2024

Keywords:

mental,
cognitive knowledge,
cognitive semantics,
mental homonyms,
core,
periphery,
mental synonyms.

ABSTRACT

The article examines the mental series of homonymy in the Uzbek and Turkish languages. Through experiments, it was analyzed that mental names have a special meaning in mental (cognitive) processes as a type of words containing certain criteria related to certain concepts, facts, and thoughts.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3-pp273-279>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbek va Turk tillarida mental omonimiya qatorlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

mental,
kognitiv bilim,
kognitiv semantika,
mental omonimlar,
markaz(yadro),
yaqin chekka (pereferiya),
mental sinonimlar.

Maqolada o'zbek va turk tillarida mental omonimiya qatorlari xususida fikr yuritiladi. Mental ismlar aqliy jarayonlarda ayrim tushunchalar, faktlar va fikrlar bilan bog'liq ba'zi mezonlarni o'z ichiga olgan so'zlarning bir turi sifatida alohida ahamiyatga ega ekanligi tajribalar orqali tahlil etilgan.

¹ Associate Professor at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, candidate of philological sciences.

Ряды ментальной омонимии в узбекском и турецком языках

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

ментальное,
когнитивное знание,
когнитивная семантика,
ментальные омонимы,
ядро,
периферия,
ментальные синонимы.

В статье рассматриваются ментальные ряды омонимии в узбекском и турецком языках. С помощью экспериментов было проанализировано, что ментальные имена имеют особое значение в психических (когнитивных) процессах как тип слов, содержащий некоторые критерии, относящиеся к определенным понятиям, фактам и мыслям.

Asli inglizcha atama bo'lgan va ko'pchilik Yevropa tillarida, ayniqsa nemis va fransuz tillarida uchraydigan "mental" so'zi turkiy tillarda "aql, aqliy, zehn, ruhiyat" ma'nosida qo'llanadi. Mental so'zi turkiy tilda "aqliy" so'ziga teng bo'lib, kognitiv tilshunoslikda tahlil qilinadi.

Erdal Aydog'mush aqliy jarayon haqida "Inson ongida tartibli tarzda sodir bo'ladigan juda murakkab bir tizim bor. Bu tizim bizga atrof-muhit va hodisalarni idrok etish imkonini beradi. Bu jarayon aqliy jarayon bo'lib, asosan psixologlarning tadqiqot sohasiga kiradi. "Tilshunoslar bu bilan shug'ullangan bo'lsalar ham, ular o'zlashtirish bo'yicha ko'proq tadqiqotlar olib borishadi" degan edi.

Mental ismlar aqliy jarayonlarda ayrim tushunchalar, faktlar va fikrlar bilan bog'liq ba'zi mezonlarni o'z ichiga olgan so'zlarning bir turi sifatida alohida ahamiyatga ega. O'zining ichki dunyosini anglab, nom bermoqchi bo'lgan inson tushunchalarni mental ifodalar bilan reallashtiradi.

N. Xomskiy aql-idrok etish, tafakkur qilish tabiatini inson tilining tabiati bilan tenglashtiradi. Xomskiyning bu g'oyasi til va ongni bir tekisda ko'rib chiqadigan nuqtayi nazar sifatida ajralib turadi. Shaxsning emotsional fikrini, holatini ifodalovchi mental so'zlar, xoh fe'l bo'lsin, xoh ot bo'lsin, aqliy jarayon deb ataladigan idrok ketma-ketligi orqali olingan ma'lumotlar qayta ishlanadigan kontekstdagi harakat yoki tushunchani ifodalaydi.

Psixik jarayonning asosi doimo atrof-muhitni idrok etishdir. Atrof-muhit idrok qilinmas ekan, odam u haqida aqliy jihatdan filtrlay olmaydi, shuning uchun uni na xatti-harakati (ko'rish / eshitish) bilan, na tili bilan (og'zaki / yozma) ifoda eta olmaydi. Psixik jarayon inson ongida sodir bo'lganligi sababli, u odamning tashqi muhitdan ma'lumot olishi va uni qabul qilgandan keyin qanday anglashi yoki aks etishini ifoda etadi.

Omonimiya hodisasida omonimlarning quyidagi kognitiv belgilari mavjud:

1. Shakliy jihatdan bir xillik.
2. Talaffuz jihatidan bir xillik.
3. Ma'no jihatdan har xillik.
4. Ikkitadan oltitagacha bo'lgan uzvli qator hosil qilish.
5. Til taraqqiyotining muayyan davriga xos mavjud bo'lishi lozim.
6. Iste'mol jihatidan bir xil doirada qo'llanishi talab etiladi.

Omonimlar talqinining murakkabligi minimum ikkita referent strukturasining mavjud bo'lishidir. Semantik usulda yuzaga kelgan omonimlarda motivatsion va nominativ aloqadorlik mavjud bo'ladi.

Kognitiv-semantik analiz til birliklarining leksikografik va psixolingvistik ma’no tahliliga asoslanadi.

Leksikografik ma’no mantiqiy metod, introspektiv metod, so’zning turli og’zaki va yozma kontekstlarda qo’llanishini tahlil qilish, komponent tahlil metodi orqali yoritiladi.

Psixolingvistik analiz tajriba (eksperiment)lar orqali amalga oshiriladi.

Quyida omonimlarni o’zbek tilida leksik omonimlarga 10ta qator keltirish, ma’nosini izohlash yuzasidan berilgan topshiriq asosidagi tajriba natijalarini ko’rib chiqamiz.

Tajriba maqsadi: talabalarining omonimlarni, ularning ma’nolarini bilish darajasini, omonimik qatorlar faolligini aniqlash.

A guruhdagi 23 nafar talabadan olingan natijalar quyidagicha bo’ldi:

A guruh	V guruh
ot – 15 (65,2%)	tut – 13 (56,4%)
soch – 11 (47,8%)	olma 12 (52,1%)
olma – 8 (34,8%)	qo’y 9 (39,1%)
oq 7 – (30,4%)	oq 8 (34,8%)
kul 7 – (30,4%)	yoz 7 (30,4%)
ko’k – 6 (26%)	o’t 4 (17,4%)
tut – 5 (21,7%)	soch 3 (8,6%)

Eng faol kuzatilgan *olma* omonimik qatoridir.

Tajriba natijalarini tahlil qilish jarayonida quyidagilar qayd etildi: darslik qo’llanmalarda qayd qilingan omonimlarning keltirilgani kuzatildi: *rasta* “qator” – *rasta I* “balog’at yoshidagi” (I.S., 20 yosh), *gul I* “o’simlik” – *gul II* “kasallik” (I.S., 20 yosh, Ch.M., 22 yosh); *dam I* “nafas”, *dam II* “bosqon”, *dam III* “hordiq” (N.N., 20 yosh).

Rasta I “qator”, *rasta II* “balog’atga yetgan” so’zlari “O’zbek tilining izohli lug’ati”da omonim sifatida keltirilgan. Bu misol ma’lum davrlarda kirish testlariga olingan va abituriyentlar uchun chiqarilgan qo’llanmalarda keltirilgan. Bu so’zlar aslida omonim bo’la olmaydi. Sababi: hozirgi o’zbek adabiy tilida “balog’atga yetmagan” ma’nosidagi *rasta* so’zi ishlatilmaydi. Fors-tojikcha asos hisoblangan *rasida* shaklida bo’lib, “yetgan” ma’nosidagi sifatdash ko’rinishidagi so’z. Shaklliy bir xillikka e’tibor sababli ko’p ma’noli so’zlar omonim sifatida keltirilgan: *chopmoq* “yer chopmoq”, *chopmoq II* “daraxt chopmoq”, *chopmoq III* “izidan chopmoq” (Y.N., 21 yosh); *bo’sh I* “yo’qlik”, *bo’sh* “idish ichi”, *bo’sh III* “insonganga nisbatan sust ma’nosida”, *bo’sh IV* “yumshoq” ma’nosida, *bo’sh V* “ishi yo’q, ma’nosida, bekorchi” (N.M., 20 yosh); *chek I* “sigaret chekmoq”, *chek II* “imzo chekmoq”, *chek III* “bilet”, *chek IV* “dard chekmoq” (R.Sh., 20 yosh); *yoz I* fasl, *yoz II* fe’l, *yoz III* dasturxonni yozmoq, *yoz IV* “yozilmoq”. Masalan, bir yozilib kelay (M.Z., 21 yosh); *bosh I* “odamning tana a’zosi”, *bosh II* ko’chma ma’noda: kochaning boshi, uyning boshi, *bosh III* bir bosh uzum, butunni bildirish ma’nosida, *bosh IV* “hamma narsada bosh, sardor ma’nosida” (M.Z., 21 yosh);

so’zlashuv uslubiga xos so’zlar ishtirok etgan: *suzmoq I* “suvda suzmoq”, *suzmoq II* “ovqatni suzmoq”, *suzmoq III* “ko’zini suzmoq” *suzmoq IV* “sigir suzmoq”, *suzmoq V* “kartani suzmoq” (Y.N., 21 yosh); “ko’zini suzmoq” ma’nosidagi *suzmoq III* shu shakldagi ibora tarkibidan olingan; “kartani suzmoq” ma’nosidagi *suzmoq V* so’zlashuv uslubiga xosdir; *sur I* “partani sur”, *sur II* “cholg’u asbobi”, *sur III* “bu yerdan ket” (N.T., 20 yosh);

omonimik qatorlarda sheva soʻzlari keltirilgan: *aya I* “ona”, *aya II* feʼl (A.G., 20 yosh); *barmoq I* “tana aʼzosi”, *barmoq II* “taom”, *barmoq III* “oʻyin turi” (R.M., 23 yosh); “taom” maʼnosidagi *barmoq II behsbarmoq* soʻzi tarkibidan ajratib olingan; “oʻyin turi” maʼnosidagi *barmoq III* shevadagi oʻyin nomidan olingan; *oʻr I* “hosilni oʻrmoq”, *oʻr II* “sochni oʻramoq” (“oʻrmoq” deyilmoqchi), *oʻr III* “gapga kirmaydigan”, *oʻr IV* “ipni oʻrash” (N.M., 20 yosh);

omonimik qatorlarda arxaik birliklar ishtirok etgan: *ol I* feʼl, *ol II* “rang” (H.M., 21 yosh); *siyoh I* “narsa”, *siyoh II* “rang” (I.D., 22 yosh); *aylanmoq I* “biror joyni koʻrib chiqmoq”, *aylanmoq II* “bir joyda oʻz oʻqi boʻyicha aylanmoq” (N.M., 20 yosh); *qoʻsh I* “feʼl”, *qoʻsh II* “qoʻsh haydamoq” (I.M., 21 yosh); *ol I* feʼl, *ol II* rang (H.M., 21 yosh).

ham arxaik birliklar, ham soʻzlashuv uslubiga xos soʻzlar ishtirok etgan: *koʻk I* “rang” – *koʻk II* “koʻkat” – *koʻk III* “tangri” – *koʻk IV* “osmon” – *koʻk V* “dollar” (Q.Sh., 21 yosh);

omonim yaqin maʼnoli soʻz bilan almashtirilgan: *et I* feʼl, *et II* “yegulik, ovqat”, *et III* “teri” (R.M., 21 yosh); “teri” maʼnosida izohlangan *et III aslida* “goʻsht” maʼnosini bildiradi;

omonim sifatida keltirilgan birliklar soʻzlar, iboralar tarkibidan ajratib olingan: *toʻq I* “qorni toʻq”, *toʻq II* “oʻziga toʻq”, *toʻq III* rang (N.T., 20 yosh); *och I* feʼl, *och II* rang, *och III* “koʻzi och”, *och IV* “qorni och” (H.M., 21 yosh); *oq I* rang, *oq II* feʼl, *oq III* “oqmoq”, *oq IV* “oq qilmoq”. Kimnidir oq qilishi (Z.N., 22 yosh); *oshiq I* “bola”, *oshiq II* “oʻyin”, *oshiq III* “eshik anjomi”, *oshiq III* suyak (O.X., 21 yosh); *yoz I* “yozish”, *yoz II* “dasturxon yozmoq”, *yoz III* fasl, *yoz IV* “charchoqni yozmoq” (N.M., 20 yosh); *suz I* suzmoq, *suz II* taom suzmoq, *suz-il-suzil III* “suzilmoq”, yaʼni qizlarning koʻzlari suzilishi, *suz IV* suz+ma “taom” maʼnosida (N.M., 20 yosh). Sodda yasama soʻzlar tarkibidagi qism ajratilgan: *ich I* “ichmoq” feʼli, *ich II* “biror narsaning ichi”, *ich III* ichikmoq, “biron narsadan siqilmoq” maʼnosida (M.Z., 21 yosh).

yoshlar nutqida faol qoʻllanadigan soʻzlar keltirilgan: *yoq I* “yaxshi koʻrmoq”, *yoq II* “olovni yoqmoq” (A.M., 20 yosh); “yaxshi koʻrmoq” maʼnosidagi *yoq I* yoshlar nutqida koʻp uchraydi; retsepiyent “tomon” maʼnosidagi *yoq III* omonimini keltirmagan. Bu soʻz nutqda kam ishlatiladi; *sep I* “sarmo”, *sep II* feʼl (Gʻ.M., 21); *dam I* “vaqt”, *dam II* feʼl, *dam III* “koptokning damini, yaʼni havosini chiqarmoq” (Z.N., 21 yosh);

soʻzga shakliy jihatdan teng kelgan grammatik shakllar ham olingan: *kir I* ot (kirlik), *kir II* feʼl (kirmoq), *kir III* soʻz yasovchi qoʻshimcha (S.K. 22 yosh); *un I* “unmoq”, *un II* feʼl, *un III* ot, *un IV* “nisbat qoʻshimcha”, *un V* “ovoz” (S.K., 21); *iz I* ot, *iz II* “izlamoq”, feʼl, *iz III* siat yasovchi qoʻshimcha: *tigʻiz* (S.K., 21).

Yordamchi, koʻmakchi feʼllar omonim sifatida olingan: *et I* “ich-yet”, *et II* “etmoq” (M.M., 20 yosh).

Omonimiya hodisasida tarixiylik va isteʼmol doirasi jihatdan chegaralanmagan holatlar ham mavjud boʻlib, omonimlarni idrok etishda muhim oʻrin tutadi. Masalan, *oy I* “yerning yoʻldoshi” – *oy II* “30-31 kunlik vaqt”, *oy III* “mahbuba, yor” omonimlaridan uchinchi omonimik qator hosil qila olmaydi. Soʻz koʻchma maʼno asosida til egasi ongida shakliy bir xillik hosil qiladi. *Oy* soʻzini koʻrishi bilan til sohibi ongida uchta voqelik jonlanadi. Shu bois lisoniy omonimlar hamda mental omonimlar oʻrtasida farq mavjud boʻladi. Mental omonimlar bu birliklarni esda saqlab qolish va maʼnosini oʻzlashtirishning faol koʻrinishlaridan biridir.

Lisoniy omonimlar isteʼmol doirasi jihatidan ham bir xillikka ega boʻlishi kerak, yaʼni omonimik qatorlar adabiy til doirasida qoʻllanishi lozim. Ammo sheva soʻzlari adabiy tilda mavjud soʻz bilan omonimik munosabatga kirishib, mental omonimik qatorlarni hosil qiladi.

Tajriba natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, inson anglagan omonimlar orasida lisoniy omonimlardan ko'ra mental omonimlar miqdori ko'p miqdorni tashkil etadi. Masalan, *irkit* so'zi lisoniy omonimlik hosil qila olmaydi, ammo sheva sohibi ongida mental omonim sifatida mavjud: *irkit I* "iflos", *irkit II* "suzma qopi". Mental omonimlar intertekstual lug'atlarni shakllantirishga va boyitishga xizmat qiladi. Mentallik sinonimlar, antonimlar qatoriga ham xosdir.

Mental omonimlarda xato bo'lishi ham mumkin: *bor I* "modal so'z", *bormoq II* fe'l, *bor* "duskada yoziladigan buyum (G'.M., 21 yosh); *bor I* "bormoq", *bor II* "biror narsaga egalik", *bor III* "duskada yozish uchun ishlatiladigan ohak" (S.G.,21). Bunda retsiyent *bo'r* so'zining yozilishini bilmasligidan (yozilishiga e'tibor bermaganidan) xatoga yo'l qo'ygan; *qor I* ot so'z turkumi – *qormoq II* "onam non yopish uchun xamir qordi" (G'.M., 21 yosh). Bu misolda *qorimoq* so'zining yozilishiga emas, talaffuziga asoslangan; *sir I* ot, *sir II* sut mahsuloti, *sir III* qoplama, sirli idish (S.G.,21) omonimik qatoridagi sut mahsuloti hisoblangan so'z сыp (ruscha) *pishloq* shaklida yoziladi.

tush I "tush ko'rmoq", *tush II* "xayol", *tush III* "ko'zga qo'yiladigan" (Sh. O., 21 yosh) omonimik qatorida retsiyent "xayol" deganda "tushda ko'rmoq" iborasini nazarda tutgan. Lisoniy omonimik qatorda ibora tarkibidagi so'z ishtirok eta olmaydi. "Ko'zga qo'yiladigan" *tush III* deganda *мышь(ruscha)* so'zi bilan ifodalanadigan tushunchani nazarda tutgan, so'zning yozilish shaklini bilmasligi sababli omonimik qatorni noto'g'ri shakllantirgan; *tush I* kosmetika, *tush II* fe'l, *tush III* "tush ko'rmoq" (H.M., 21 yosh).

Keltirilganlar asosida omonimlarni bilish, anglash darajasi haqida quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1. Filolog talabalar ongida darslik, qo'llanmalarda omonimga oid nazariy masalalarni yoritishda keltirilgan misollar ko'proq esda qoladi: *o't, olma, qo'y, soch, ko'k, oq, ot, yoz, tut*.

2. Talabalarning manbalarda leksik omonim sifatida keltirilgan, lekin aslida leksik omonim bo'lmagan so'zlarni ham omonim sifatida yod olgani va qabul qilgani ma'lum bo'ldi.

3. Tajriba jarayonida ko'chma ma'noli, arxaik, shevaga xos so'zlarning omonim sifatida olingani, so'z tarkibidagi shakllarning ajratilgani lisoniy omonimiya bilan mental omonimiyaning farqlanishini ko'rsatadi;

Mental omonimiyada omonim so'zlarning kognitiv talqin maydoni yadrosida eng faol qo'llanuvchi dominanta so'z turishi, omonimik qatorlarning boshqa uzvlari kognitiv maydonning markaz(yadro) va yaqin chekka (pereferiya)qismlaridan joy olishi aniqlandi.

4. Omonimik qatordagi dominantalik leksik omonimlarning ko'p uchrashi, manbalarda qayd qilingani, til egasi faoliyatida ko'p qo'llanishi bilan belgilanadi.

Dominantalik omonimlarning turlariga ham xosdir. Fonetik, grafik, leksik, frazeologik, grammatik, simvolik omonimlar orasida mental leksikonda leksik omonimlar dominantalik qiladi.

Turk tilshunosligida so'zlarning o'zaro omonim bo'lishi uchun talaffuzi va yozilishi bir xil, ma'nosi turlicha bo'lishi yetarli hisoblanadi: *akrep (chayon)- akrep (soatning kichik mili); çay (choy)- çay (soy); dahi (hatto) – dahi (dohiy);ağız(og'iz)- ağız(sheva)- ağız(og'iz suti)*.

Turk tilida x va h harflarining bir xil yozilishi va talaffuz qilinishi ham omonimlarni shakllantirishga xizmat qiladi:

Mahsus I sf. 1. Özgü. /Maxsus, xos; **Mahsus II** sf. esk. 1. Duyulan, anlaşılan, hissedilen./ His qilingan.

Atoqli otlar-ismlar va joy nomlari ham omonim sifatida qaraladi: **Makam I** isim. Mevki, kat(I), yer. /mavqe; **Makam II** müzik. Klasik Türk müziğinde bir müzik parçası veya şarkının işleniş biçimi./ Maqom.

Türk tilida omonimlarning yuzaga kelish omillaridan biri semantik usuldir. Semantik usuldagi omonim hosil bo'lishining eng faol ko'rinishlaridan biri metonimiya asosida nom hosil bo'lishidir:

Narsa-buyum ishlatilish maqadi va ashyosiga ko'ra qayta nomlangan: **Mantar I** isim, bitki bilimi. Mantarlardan, içinde zehirli de bulunan, silindir bir gövde ve üst tarafı şapka biçiminde olan ilkel canlıların genel adı (Fungi)./ Qo'ziqorin; **Mantar II** Bu tabakadan yapılan şişe tapası./ Shisha idish og'zi uchun tiqin. **Mantar III**. Mantar hastalığı./ Zamburug'kasalligi.

Narsa-buyum ilk aniqlangan joyi yoki uchrashi manziliga ko'ra nomlangan: **Misir I** isim. Duymayan kalmadı anlamındaki Mısır'daki *sağır sultan bile duydu* atasözünde geçen bir söz. /Misr. **Misir II** isim, bitki bilimi. Buğdaygillerden, gövdesi boğumlu ve kalın, yaprakları şerit biçiminde, boyu yaklaşık 2 metre olabilen, erkek çiçekleri tepede salkım durumunda, dişi çiçekleri yaprakla gövde arasında koçan biçiminde olan bir kültür bitkisi./ Makkajo'xori o'simligi.

Belgi bildiruvchi leksema shu belgi stereotip sifatida uchraydigan millatga nisbat berish asosida qayta nomlangan: **Osmanlıca I**. Osmanlı Türkçesi./ Usmonli turkchasi. **Osmanlıca II** Osmanlının tavrı ve hareketleri gibi. /Usmoniylardek.

Türk tilidagi omonimik qatorlarda ham so'zlashuv uslubi, shevalarga xos birliklar kuzatiladi: **örük I** halk ağzında. Saç örgüsü. /Soch o'rimi. **örük II** halk ağzında. Hayvanları çayıra bağlamaya yarayan kalın ip. /Arqon.

Bu esa türk tilida ham mental omonimik qatorlar mavjudligini ko'rsatadi.

Birdan ortiq narsa-ashyoni bir narsaga o'xshatish asosida omonimlar yuzaga keladi: **öküzgözü I** a. (öküzgözü) bit. b. Birleşikgillerden, sarı renkte, papatyayı andırır bir çiçek ve onun bitkisi, sırgöz, mastı çiçeği, arnika (*Arnica montana*). / Arnika (qoqidoshlar oilasiga mansub o'simlik nomi).

öküzgözü II a. (öküzgözü) bit. b. Kaliteli, kendine özgü kokusu olan şarap üretilen, orta kalın kabuklu, siyah renkli bir tür üzüm./ Uzum navi.

Türk tilidagi omonim konseptosferasi narsa-buyum, joy nomlari, atoqli otlar doirasini qamrab oladi.

Tilning ko'p funksiyaliligi so'zlarning noaniqligini keltirib chiqaradi. Agar so'zning turli ma'nolari tizimli ravishda bog'langan bo'lsa, bu ma'nolarni bir-biridan qanday farqlash, ma'no belgilarida ularning qonuniyligini aks ettirish kerak bo'ladi. Tildagi ko'p ma'noli va omonim so'zlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash semantik usuldagi omonim yasallashining mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Ko'p ma'nolilik va omonim so'zlarning qiyosiy tahlili ma'nosini ajratish muammolarini bartaraf etish usullarini ishlab chiqishga ehtiyojni yuzaga keltiradi.

Tildagi ko'p ma'nolilik omonimlik bilan aloqador. Bir qaraganda ularni farqlash qiyin. Omonimiyaga misol keltirish so'ralganda ishtirokchilar ko'p ma'noli so'zlarni beradilar. Ko'p ma'nolilik va omonimlik matn orqali farqlanadi. Bir til oilasiga mansub tillarda ularni farqlash mushkuldir. Ko'p hollarda ko'p ma'nolilik va omonimlik farqlanmaydi. Tadqiqotchilar bu shakllarning bir-biridan yuzaga kelishi, vazifasi, ma'nosi

ji hatidan farq qilishini asoslab berishgan. Xorij manbalarida ikki turdagi soʻzlar oʻrtasidagi farqlarni topishda oʻziga xos yondashuvlardan foydalaniladi. Anʼanaviy tilshunoslik tajribasi va kognitiv tahlillardan foydalanish tavsiya etiladi.

Mental omonimik qatorlar til sohibining idroki tajribasi bilan bogʻliq boʻlib, bevosita tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday omonimik qatorlarning yuzaga kelishida maʼno koʻchishi, yangi soʻz oʻzlashtirish, sheva muloqoti asosiy omil vazifasini oʻtaydi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Erdal Aydoğmuş. Özbek Türkçesinde mental fiiller. RumeliDE Dil ve Edebiyat Araştırmaları Dergisi Istanbul, 2021.22 (Mart). –S.136.
2. Erkan Hirik Türkiye Türkçesinde ‘Mental İsimler. Journal of Language Studies’ Dil Araştırmaları 2021/28: 33-55.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б.8.
4. Holly L. Storkel and Junko M. Young. Homonymy in the Developing Mental Lexicon (Mental leksikonning rivojlanishida omonimlarning oʻrni). Sommerville, MA: Cascadilla Press. 2004.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006-2008. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. – Тошкент, 2023.
6. Türkçe Sözlük. Türk Dil Kurumu. Yeni Başk. Ankara 1988.
7. Türkçe Sözlük. Türk Dil Kurumu Yayınları. Ankara 2019.